



Tadqiqot UZ

**ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Хуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



Crossref



CONFERENCE.UZ

30 APRIL
№27

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 27-КҮП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
14 -ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
27-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-14**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
27-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-14**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 27-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 апрель 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 13 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманганд мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқовиҷ, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқовиҷ, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ТАСВИРИЙ САНЪАТ ВА ДИЗАЙН

1. Karimov Jasurbek Barakayevich

TASVIRIY SAN'AT HAQIDA DASTLABKI MA'LUMOTLAR..... 7

2. Qudratova Dilobar Usmonovna, Djumayeva Dilnavoz Isomiddinovna

RANGTASVIRDA QALAM TASVIRNING O'RNI 9

3. Saidova Oyniso Aslonovna

USTOZ-SHOGIRD AN'ANALARI ASOSIDA BO'LAJAK AMALIY SAN'AT
O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI OSHIRISH 11



ТАСВИРИЙ САНЪАТ ВА ДИЗАЙН

TASVIRIY SAN'AT HAQIDA DASTLABKI MA'LUMOTLAR.

Karimov Jasurbek Barakayevich

Navoiy viloyati Navbahor tumani 21-DIUM
tasviriy san'at fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Tasviriy san'at — o'quvchilarda borliqni haqqoniy obrazlarda tasvirlashni mukammal o'zlashtirish, yosh rassomlarni tayyorlashdagi dastlabki qadam hisoblanadi.

Kalit so'zlar. Perspektiva qonuni, jahon san'ati, qalamtasvir, plastik shakl, geometrik shakllar, Realistik rasm, tasvirlash qonun-qoidalari.

Qog'oz yuzasida jismlarning asl shaklini yuksak mahorat bilan to'g'ri tasvirlash uchun tasviriy malakani mukammal egallash va uni amaliyotda qo'llash xotira va tasavvurga asoslanib, rasm chizishni o'rganish zarur. Albatta, bunday ijodiy topshiriqlarni bajarish uchun inson rassomchilik qobiliyatiga ega bo'lishi va o'z ustida uzlusiz, betinim ishlay olishi muhimdir. Tasviriy san'atning asosiy vazifasi — yoshlarda tasvirlash mahorat qirralarini o'rganish natijasida yuzaga kelgan bilim va malakalarni shakllantirishni o'z ichiga oladi. U o'quvchidan tasvirlash qonun-qoidalarni bilishni va ulardan to'g'ri foydalana olishni ko'zda tutadi. Rasm chizishga o'rgatish, bu — bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lган quyidagi vazifalarni hal etishni taqozo etadi:

- narsani o'ziga qarab anglash, kuzatish, jismlarni o'zaro solishtirish;
- jismlarni shakli, rangi, materiallik xususiyati bo'yicha farqlay bilish;
- rasm chizish mashg'ulotlarida e'tiborli bo'lish, fikrlab, jismlarning shaklini aniq tahlil qilishga o'rgatish.

Realistik rasm chizish asoslari, uslublari va mahoratini o'zlashtirish, tasvirlashda ketma-ketlikni bilishga va turli materiallardan foydalana olishga o'rgatadi. Nazariy va amaliy mashg'ulotlarda bo'lajak pedagog bilim olishi va malakasini oshirishi, turli xil qalamlar bilan ishlashni o'rganishi va o'z qobiliyatini shakllantirishi, amaliyotda undan samarali foydalana olishi muhim hisoblanadi. Tabiatdagi barcha shakllar va hattoki, inson tanasi ham o'zida turli geometrik shakllarga o'xshash birikmalaridan tarkib topgan murakkab plastik shakldir (kub, shar, silindr, prizma va boshq.). Shuning uchun qalamtasvir bo'yicha dastlabki mashg'ulotlar tasviriy san'atning asosiy qonun va qoidalarini o'zlashtirish hamda ushbu qonunlar asosida oddiy geometrik shakllarni turli holat va rakursda chizishga qaratiladi. O'quvchilarning tasviriy san'at sohasida mahoratlarini oshirishga alohida urg'u bergen holda ushbu sohaning mashhur namoyandalari bildirgan fikrlarni har bir yosh mutaxassis yodda tutishi va ish jarayonida ularni o'ziga shior qilib olishi maqsadga muvofiqdir. Tasviriy san'atning asosiy vazifasi — bo'lajak pedagogda borliqni his etish va uni o'z ish jarayonida jonli tasvirlay olish qobiliyatini rivojlantirish hamda yosh avlodga o'zbek va jahon san'ati to'g'risidagi ma'lumotlarni to'laqonli yetkazishdan iborat. Tasviriy san'at sohasida amaliy jihatdan mahoratni shakllantirish jarayoni naturani hayotiy tasvirlash mashqlari orqali amalga oshiriladi. Bu haqda ko'plab ilmiy maqolalar, o'quv adabiyotlari va risolalar yozilgan bo'lib, qadimgi Uyg'onish davridayoq rassom ijodkorlar o'zlarining dunyoga mashhur san'at asarlari va metodik izlanishlari orqali o'z fikrlarini bayon etishgan. Shaklni to'g'ri tasvirlash uchun o'quvchi, avvalambor, uning o'ziga xos tomonlarini aniq tasavvur etish va ko'rishni o'rganishi kerak. Yosh va boshlovchi rassom uchun bu oson ish emas va doimiy ravishda nazariy hamda amaliy mashg'ulotlarni talab qiladi. Mashhur ijodkorlarning fikriga ko'ra, agarda, rassom bir kun rasm chizishdan to'xtasa, u ikki kun orqaga ketadi. Shuning uchun yosh rassom naturaga qarab, jismlarning haqqoniy rasmini chizishni bir kun ham to'xtatmasligi kerak. Bu esa, uning shakl va hajmni qanday qabul qilishiga, anglab yetishiga bog'liq. Tabiatan barcha narsalar, buyumlar va ularning shaklini insonlar turlicha tasavvur etishadi. Bu esa, o'z navbatida, har bir insonning tasavvuri, xarakteri va ko'rish qobiliyatiga bog'liq.

Perspektiva qonuni. Yosh rassomlarni narsani o'ziga qarab, xotira va tasavvurdan rasm



chizishga o'rgatishda realistik tasviriy san'at qonun-qoidalarini nazariy asoslarini bilishlari katta ahamiyatga ega. Buyum tekisligida jismni haqqoniy tasvirlash uchun, uning bizga ko'rinish turgan qismi, undagi xos bo'lgan quyidagi barcha xarakterli jihatlari va xususiyatlarini tasavvur etish lozim: 1. Konstruksiya jihatdan tuzlishi. 2. Nisbati. 3. Hajmi. 4. Qanday materialga ega ekanligi. 5. Fazoda joylashuvi. Bizni o'rab turgan atrofimizdagi barcha buyumlar tasviriy san'atning asosiy qonunlaridan biri bo'lgan perspektiv qisqarishga ega. Tasvirlanayotgan buyumlar, ushbu buyumning qaysi tomonidan tasvirlanishidan qatyi nazar (uzoqdan, yaqindan, yuqoridan, pastdan, to'g'ridan yoki chekkadan), chizuvchiga perspektiv o'zgarib ko'rindi. Masalan, kubni u yoki bu tomonga burib, uning tomonlarini chizuvchiga perspektiv o'zgarib ko'rinishini kuzatamiz.

Ko'chaning o'rtasidan keta turib, derazalar, yo'l chetidagi daraxtlarga qarasak, ular xuddi qisqarib borayotgandek. Aslida esa, ularning o'lchami o'zgarmaydi. Uzoq masofalarda juda katta hajm-dagi jismlar ham kichrayib, noaniq belgilari, chiziqlar va bo'laklar shaklda ko'rindi. Jismlarning bunday o'zgarishi ma'lum qonunlarga bo'ysunadi. Ushbu qonunlar insonning ko'rish qobiliyatiga, jismlarning masofa o'zgarishi, qisqarishi natijasida vujudga keladi. Bularni tasviriy san'atda perspektiva qonuni, deb ataladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. B. Boymetov, S. Abdurasulov. Chizmatasvir. T., G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2003.
2. B. Boymetov. Qalamtasvir. T., G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006.
3. www.ziyouz.com



RANGTASVIRDA QALAM TASVIRNING O'RNI.

Qudratova Dilobar Usmonovna

Navoiy viloyati Zarafshon 3-umumiyl
o'rta ta'lif maktabi boshlang'ich sinflarda
tasviriy san'at fani o'qituvchisi
Telefon raqami: 93 463 10 83

Djumayeva Dilnavoz Isomiddinovna

Navoiy viloyati Zarafshon 3-umumiyl
o'rta ta'lif maktabi boshlang'ich sinflarda
tasviriy san'at fani o'qituvchisi
Telefon raqami: 97 320 01 48

Annotatsiya. Rangtasvir haqqoniy shaklning rangli tuzilishi qonuniyatlariga asoslanadi. Rangtasvirni o'rganish — bu tekislikdagi rangli shaklning nisbatlari, konstruktiv qurilishi, xajmi, fazoviy tuzilish usullarini izlash yo'lidir. Shularga bog'liq holda har-bir rassom qalamda buyum va narsalarni perspektiva qonunlariga asoslanib konstruktiv tuzilishi, fazoviy joylashuvi, nisbat, hajmni mukammal tasvirlay olishi zarur.

Kalit so'zlar. P.P. Chistyakov, A.M. Vasnetsov, bo'yoqlar, qalamsurat, garmonik uyg'unlashuv, Qalamtasvir, fazoviy joylashuv, perspektiva qonunlari, fazoviy tuzilish, konstruktiv qurilish, tekislik, Rangtasvir.

Qalamtasvirda rang va tusning yaxlit bir butunlikda garmonik uyg'unlashuvi bu xaqiqiy rangtasvirdir. Tasvirda qalamsurat mukammal bo'lishi lozim, aks holda turli bo'yoqlar ham oddiygina narsa va buyumning qurilishi, xajmini to'liq ifodalab bermaydi. Havo perspektivasiga bog'liq holda ranglarning nozik o'zgarishini ifodalovchi, matoga berilgan rang-barang surtmalar ham, o'z-o'zidan fazoviy kenglikni ko'rsata olmaydi. Faqat perspektiva qoidalariga to'g'ri amal qilib tasvirlangan qalamtasvirning ranglarni yanada ham jozibali ko'rsatadi. Agar tabiat manzarasi perspektiva qonun-qoidalariga amal qilinmay tasvirlansa, kenglikni ifodalovchi rangning o'rni ahamiyatsizdir. Rangtasvirni rassomlar shunday ta'riflaydi; "Bu 100% qalamtasvir va 100% rangtasvirning bir-biriga chambarchas bog'liqligidir" Rangtasvirning jozibali chiqishida qalamtasvirning o'mi beqiyosdir. Ammo, mohir rassom qalamdan foydalanmasdan ishni bo'yoqlar bilan tasvirlashi ham mumkin. Ijodkor izlanish jarayonida rangtasvirni qalamtasvir bilan bevosita bog'liqligini his etadi. Ya'ni, buyumlarning fazoviy joylashuvi, nisbatlarning aniqligi, ranglarning to'g'ri qo'yilishi, ishni bir butunlikda yakunlanishi ko'p jixatdan ijodkorga bog'liq. Rassom qalamtasvirni puxta o'zlashtirib olgandagina (qog'ozga to'g'ri joylashtirish, narsa va buyumlarning fazoviy joylashuvi, perspektiva qoidalariga amal qilish, nisbatlarni to'g'ri topish, metodik ketma-ketlikda ishni tuslash va h.k.) rangtasvirda ko'zlangan maqsadga erishish mumkin, aks holda noaniq yechilgan qalamtasvir ishini taxlil etsak, ranglar qanchalik jozibali bo'imasin, baribir bu ishni sifatl deb bo'lmaydi. Shuning uchun turli rassomlik maktablarining tarixiy tajribalari shundan guvoxlik beradiki, ta 'limning dastlabki bosqichlarida qalamtasvirni mukammal o'zlashtirish keyingi jarayonlar uchun zamin yaratadi. Yosh rassom Odoardo Fioletti Venetsiyaga o'qishga kelganida, rangtasvirni mukammal egallash uchun nima qilish kerak degan savoliga Tintoretto shunday javob bergan: "Rasm chizish!". Rassom bo'lish uchun yana qo'shimcha nimalarni maslahat berar edingiz, degan Fiolettining qayta savoliga Tintoretto: "Rasm chizish va yana rasm chizish!" — rasm chizish, rangtasvirga nafislik va mukammallik ato etishini haq deb bilgan1. Buyuk haykaltarosh Mekelanjelo qalamtasvirda (rangtasvir, xaykaltaroshlik, me'morchilikda) "har qanday ilmning ildizi va negizini ko'rgan". "Qalamtasvir doimo bizga yo'l ko'rsatib turuvchi qutb va kompas bo'lib, turli bo'yoqlar okeanida cho'kayotganlarga najot berish omilidir", — deya ta'kidlagan Shari Lebren. Engr o'z ustaxonasining eshiklariga quyidagi so'zlamni yozgan "Bu yerga kelgan shogirdlarga qalamtasvirni o'rgataman, ketayotganda esa, ular rangtasvir ustasi bo'lib yetishadi". "Shunday narsa mavjudki, u hamma san'at turlarining asosi hisoblanadi, bu — qalamtasvir. Kimki qalamtasvir san'atini mukammal egallasa, u rangtasvirni ham, xaykaltaroshlikni ham o'zlashtira oladi," — deb aytgan Karuchchi. "Har qanday shaklni ajoyib, nafis qiluvchi ranglar emas, balki aniq chizilgan qalamtasvirdir" — degan Titsian. U qarigan chog'larida ham, ko'mir yoki mel bilan nimalarnidir tasvirlamagan kuni bo'limgan.



“Qalamtasvirga asoslanmagan rangtasvir san’at emas, balki rangli dog’larning tartibsiz yig‘indisidir”, — deya doim takrorlagan V.E. Makovskiy. “Qalamtasvirni puxta bilmagan, ijod ham qila olmaydi”, — deb ta’lim bergen P.P. Chistyakov. I.E. Repin kunora 2—3 soat qalamtasvir bilan shug’ullangan va uni rangtasvirni asosi deb hisoblagan. A.M. Vasnetsov P.P. Chistyakovning ta’lim berish tizimini yodga olib, “uning sevimli mashg’uloti qalamtasvir” edi, deb eslaydi. Ashbening Myunxendagi rassom-pedagog maktabida hattoki san’at Akademiyasini tamomlaganlar ham ta’lim olar, ta’lim berish faqat qalamtasvir bo'yicha (shaklning konstruktiv tuzilishi, tus-soya, yorug’ munosabatlar aks etgan tasvir, grizayl), uzoq vaqt o’tkazilgan, shuning natijasidagina shaklni konstruktiv qurish va tus munosabatlarini puxta egallab, so’ng ranglar bilan tasvirlashga o’tilgan. Yetuk rassomlarning yaratgan asarlari shunisi bilan diqqatga sazovorki, asar kompozitsiyasining mohirona topilganligi, mavzuning dolzarbligi, issiq va sovuq ranglarning o’zaro hamoxangligi kishini hayratga soladi. Mashhur rangtasvirchi rassomlarning ko’philigi awalambor yetuk qalamtasvir ustalaridir. Bular qatoriga K.P. Bryullov, I.I. Shishkin, V.E. Makovskiy, V.D. Polenov, I.E. Repin, M.A. Vrubel, V.A. Serov, K.A. Korovin, A. Abdullayev, O’. Tansiqboyev, Z. Inog’omov, M. Nabiiev, R. Ahmedov, B. Jalolov, A. Mirzayev, A. Ikromjonov, I.Xaydarov kabilar kiradi. Rangtasvirda nozik plastik shaklning mavjudligi, nisbatlarning mutanosibligi, hajm, fazoviy sifatlar muhim o’rin egallaydi. Rangtasvirchi rassom naturadagi ana shu jixatlarni to’laqonli aks ettira olsagina maqsadga muvofiq bo’ladi. Agarda bu jihatlar mavjud bo’lmasa, tasvir o’ta ehtiyyotsizlik, pala-partishlik bilan ishlangan sifatsiz ish deb baholanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Azimova B.Z. Natyurm ort tuzish va tasvirlash metodikasi. Toshkent: O’qituvchi, 1984.
2. Abdirasilov S. Tasviriy san’at atamalari. T., 2003.
3. www.ziyouz.com



**USTOZ-SHOGIRD AN'ANALARI ASOSIDA BO'LAJAK AMALIY SAN'AT
O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI OSHIRISH**

Saidova Oyniso Aslonovna

Navoiy viloyat Karmana tumani 5-umumta'lim məktəb
Tasviriy san'at fani o'qituvchisi

O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-idtisodiy taraqqiyotning barcha sohalarida ro'y berayotgan tub o'zgarishlar ma'naviy-ma'rifiy, mafkuraviy, kasbiy jihatdan mutlaqo yangi zamon kishisini shakllantirishni taqozo etadi. Hozirgi zamon yoshlarini milliy, sharqona an'ana va qadriyatlarini hisobga olgan holda, zamonaviy ruhda tarbiyalash hamda ijobiy insoniy fazilatlarga ega bo'lgan kasb-hunar sohiblarini tayyorlash muammosi davlat miqyosidagi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Bugungi kunda respublika hukumatining qator hujjatlari Vatanimizning har tomonlama jahon andozalari asosida rivojlanishiga qaratilmoqda. Jumladan, yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda madaniyat, qadriyat, milliy san'at namunalardan, ota-bobolar tomonidan yaratilgan va butun jahonga mashhur bo'lgan ajoyib san'at namunalardan keng foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda. Zamonaviy ta'lim tizimini rivojlanirish jarayonida bitiruvchining kasbiy tayyorgarligiga qo'yilgan talablar yanada kuchayib bormoqda.

O'quvchilarning kasbiy tayyorgarligi samaradorligini oshirish muammosi hal qiluvchi bo'lib qolmoqda. Fanning ma'naviy-axloqiy, badiiy-estetik, umuminsoniy vazifalari - bu insonning otababolari tomonidan yaratilgan milliy-madaniy merosga, an'anaviy va milliy o'ziga xosligiga, Vatanga, oilaga va o'zining ajdodlariga bo'lgan mehr-muhabbatini ortishidan iborat. Zamonaviy ta'lim tizimini rivojlanirish jarayonida bitiruvchining kasbiy tayyorgarligiga qo'yilgan talablar yanada kuchayib bormoqda. O'quvchilarning kasbiy tayyorgarligi samaradorligini oshirish muammosi hal qiluvchi bo'lib qolmoqda. Fanning ma'naviy-axloqiy, badiiy-estetik, umuminsoniy vazifalari - bu insonning otababolari tomonidan yaratilgan milliy-madaniy merosga, an'anaviy va milliy o'ziga xosligiga, Vatanga, oilaga va ajdodlariga bo'lgan mehr-muhabbatini oshirishdan iborat.

Tarix shuni ko'rsatadiki, agar ruhiy hissiyotlar so'nsa, unda ruhiy madaniyat ham o'z-o'zidan yo'qoladi. Fikrlash tufayli xalq madaniyati doimiy harakatdagi tamoyilga, o'zining rivojlanish mexanizmi va shakllariga ega. Bularning barchasi asosida xalq madaniyati rivojlanadi. U erda badiiy ijodkorlik avlodlarni birlashtiradi hamda amaliy san'at məktəbi an'analari shakllanib boradi. Otabobolar, ajdodlar xotirası xalq madaniyati va onging o'ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi. SHu tarzda, u boshqa ijod turlari, ta'lim-tarbiya vositalardan farqli o'laroq insonning o'z fikrida mustahkam turishiga, Ona yurtiga sadoqat tuyg'usini rivojlanirishga yordam beradi.

Bo'lajak amaliy san'at o'qituvchilari tomonidan xalq amaliy bezak san'ati, badiiy hunarmandchilik durdonalarini saqlab qolish va rivojlanirishda amaliy bezak san'ati tarixi, uning asosiy atama, tushuncha, maqsad va vazifalarini, shuningdek xalq ustalari tajribasi, betakror badiiy usullarni o'zlashtirish hamda avloddan avlodga etkazishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Kasbiy kompetentli kadrlarni tayyorlash hamda dekorativ-amaliy ijodiyotning maqsadi – milliy madaniy an'analarni asrab-avaylash va rivojlanirish muammollarini hal etishga qaratilgan kasbiy faoliyat sohasida o'quvchilarda umummadan va kasbiy bilimlarini shakllantirishdan iborat. «Amaliy san'at» ta'lim yo'nalishi o'quvchilari qator kasbiy faoliyat turlari bo'yicha tayyorlanadilar: badiiy-ijodiy, pedagogik, o'quv-metodik, ilmiy-tadqiqot, ma'naviy-ma'rifiy hamda tashkiliy-boshqaruv.

O'quvchilar o'quv jarayoni doirasida nafaqat xalq amaliy bezak san'ati bo'yicha nazariy bilimlarni egallaydilar, balki kasbiy rivojlanishning asosiy tendensiyalaridan biri bo'lgan xalq amaliy bezak san'ati an'analarni davomchilari bo'lmish xalq ustalari bilan dirgalikda faoliyat olib boradilar.

Xalq ustasi - an'anaviy madaniyatni avloddan avlodga etkazuvchi, badiiy obrazlar (tasvirlar) ni yaratuvchi, xalqning dunyoqarashlarini asrab-avaylovchi sifatida namoyon bo'ladi. Rassom-pedagog xalq amaliy san'ati sohasiga o'tkazuvchi, o'quvchilarga an'anaviy madaniyatning barcha qatlamlarini ochib beruvchi va xalq amaliy san'atining badiiy g'oyalarini tushunish darajasiga etkazishni rivojlaniradi. Xalq ustalari bilan ishlash xalq amaliy san'atining o'ziga xos xususiyatlari mustaqil ijodkorlik turi sifatida, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlardan mustaqil o'z uslubiga ega ekanligi



bilan ajralib turadi. Ta’lim muassasasida o‘rgatish bilan ustoz-shogird an’analari asosida shogird tayyorlash usullari farqini ajratib olish maqsadga muvofiq. Ustoz-shogird an’analari asosida shogird tayyorlash – bu oilada bo‘lajak kasbning asoslarini tushunish, so‘ngra tajribali ustanning ustaxonasida ishni davom ettirishdan iborat. Ta’lim muassasasida o‘qish tugagandan so‘ng esa o‘quvchi o‘zining murabbiyi nazorati ostida ma’lum muddat ishlaydi. Ushbu uslub yordamida xalq falsafasiga asoslangan an’anaviy tafakkur shakllanadi. Bunday ta’lim-tarbiya berishning mohiyati o‘quvchilarning nafaqat kasbiy rivojlanishi, balki ma’naviy o‘sishi orqali tug‘ma ehtiyojini qo‘llab-quvvatlashdan iborat. O‘quvchilar xalq ustasi bilan ishlash jarayonida tayyorlangan amaliy bezak san’ati asarining mazmuni, go‘zalligi va mukammalligi mohiyatiga vaqt o‘tishi bilan tushunib etadilar.

Shunday qilib, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilar nafaqat nazariy, balki amaliy bilim, ko‘nikma va malakaga ega bo‘ladilar. Ular o‘zлari mustaqil san’ati asarlarini yaratadilar va shu bilan xalq amaliy bezak san’atini asrab-avaylashga, avloddan avlodga o‘tishiga hissa qo‘shadilar. Ko‘rib turganimizdek, xalq ustalarining tajribasini o‘rganish bo‘lajak amaliy san’at o‘qituvchilariga keyingi kasbiy faoliyatlarida zarur bo‘ladigan bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishiga imkon yaratadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bo‘lajak amaliy san’at o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini oshirish va milliy xalq madaniyatini o‘rganish hamda saqlab qolishda kasb-hunar ta’limi tizimida yanada muvaffaqiyatli ish olib borishni talab etadi. Kasb-hunar ta’limi mazmuni, ta’lim berish usullarini tanlashda, umumiyl ilmiy didaktik uslublarni bilish, badiiy-pedagogik tajriba va xalq ustalarining badiiy usullari, shuningdek milliy an’anaviy ta’lim-tarbiya metodlarini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ta’lim va tarbiya berish tizimini talab darajasida tashkil etishda xalq ustalarining ma’naviy-ahloqiy tajribasi, turmush tarzi hamda ular yordamida avloddan avlodga o‘tib kelayotgan an’ana va qadriyatlarga e’tibor qaratish bo‘lajak amaliy san’at o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirishning asosiy omili.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Гузеватова Е.Н. Использование традиций народного декоративно-прикладного искусства в системе образования Республики Хакасия // Инновационная наука. 2015. № 7. С. 92–95.
2. Вакуленко Е.Г. Изучение и сохранение народного искусства Кубани: к юбилею кафедры народного декоративно-прикладного искусства: монография. Краснодар, 2013. 200 с.
3. Булатов С.С., Гулямов К.М. Амалий санъат. Дарслик. – Т.: ИҚТИСОД-МОЛИЯ, 2014. – 542 б.
4. Yo‘ldoshev H.O., Bulatov S.S. Ustoz va shogird odobi. – T.: Ozbekiston, 2005. – 240 b.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 27-КҮП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(14-қисм)

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳих: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.04.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000